GERMANIYA TAJRIBASINING O‘ZBEKISTONDAGI O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARI UCHUN AHAMIYATI

Rixsiboyev Kozimjon Karimjon o‘g‘li
Sarbon Universiteti tyutori

Annotatsiya. Germaniya Federativ Respublikasining mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish tizimi tajribasi va uning O‘zbekiston Respublikasidagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari - mahalla institutini isloh qilish uchun amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda Germaniyaning konstitutsiyaviy asoslari (Grundgesetz, 28-modda), subsidiarlik va nomarkazlashtirish tamoyillari, kommunal byudjet avtonomiyasi hamda vakillik va ijroiya organlari o‘rtasidagi o‘zaro tiyib turish mexanizmlari o‘rganiladi. O‘zbekistonning “O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida mahalliy boshqaruvni isloh qilish borasidagi sa’y-harakatlari Germaniya modeli bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Germaniya tajribasi O‘zbekistonda mahalla institutining huquqiy maqomini mustahkamlash, moliyaviy mustaqilligini oshirish va fuqarolik jamiyati bilan davlat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashda muhim konseptual asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Germaniya, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish, O‘zbekiston, mahalla, subsidiarlik, nomarkazlashtirish, kommunal boshqaruv, qiyosiy tahlil.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительно-правовой анализ опыта системы муниципальное управление Федеративной Республики Германия и его практического значения для реформирования института органов самоуправления граждан, в частности института махалли, в Республике Узбекистан. В рамках исследования рассматриваются конституционно-правовые основы местного самоуправления Германии, в частности гарантии местного самоуправления, закрепленные в статье 28 Основного закона Федеративной Республики Германия (Grundgesetz), а также принципы субсидиарности и

децентрализации, финансовой самостоятельности органов местного самоуправления, механизмы взаимных сдержек и противовесов между представительными и исполнительными органами. Кроме того, в сравнительном аспекте анализируются проводимые в Узбекистане в рамках стратегии «Узбекистан — 2030» реформы, направленные на совершенствование местного управления и развитие деятельности органов самоуправления граждан, с учетом опыта Германии. Результаты исследования показывают, что опыт Германии может служить концептуальной и практической основой для дальнейшего укрепления правового статуса института махалли в Узбекистане, повышения его финансовой и организационной самостоятельности, эффективного распределения полномочий на нижестоящие уровни, а также обеспечения оптимального баланса между гражданским обществом и государственным управлением.

Ключевые слова: Федеративная Республика Германия, местное самоуправление, Республика Узбекистан, махалля, институт махалли, субсидиарность, децентрализация, муниципальное управление, финансовая самостоятельность, органы самоуправления граждан, сравнительно-правовой анализ.

Abstract. This article analyzes the experience of the local self-government system of the Federal Republic of Germany and its practical significance for reforming the institution of citizens' self-government bodies, particularly the mahalla institution, in the Republic of Uzbekistan. The study examines the constitutional foundations of local self-government in Germany, including Article 28 of the Basic Law (Grundgesetz), the principles of subsidiarity and decentralization, municipal budgetary autonomy, as well as mechanisms of checks and balances between representative and executive bodies. The efforts undertaken to reform local governance in Uzbekistan within the framework of the "Uzbekistan–2030" Strategy are comparatively analyzed

with the German model. The findings demonstrate that the German experience can serve as an important conceptual framework for strengthening the legal status of the mahalla institution in Uzbekistan, enhancing its financial autonomy, and ensuring an appropriate balance between civil society and the state.

Keywords: Germany, local self-government, Uzbekistan, mahalla, subsidiarity, decentralization, municipal governance, comparative analysis.

Kirish: Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish zamonaviy demokratik davlatlarning asosiy institutlaridan biri bo‘lib, u davlat boshqaruvi bilan fuqarolarning bevosita ishtiroki o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi. Germaniyalik mashhur davlatshunos G. Ellinekning ta’kidlashicha, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish - bu “davlatning professional mansabdor lavozimiga ega bo‘lmagan shaxslar orqali boshqarilishi, bunda boshqaruvdan manfaatdor shaxslar vositasida davlatning byurokratik boshqaruv tizimiga qarama-qarshi bo‘lgan boshqaruv”dir.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng, mahalliy boshqaruv tizimini isloh qilishda xorijiy tajribalarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratdi. Bu borada Germaniya Federativ Respublikasining tajribasi alohida ahamiyatga ega, chunki Germaniya mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish sohasida uzoq tarixga ega va “siyosiy hamda funksional jihatdan kuchli” modelga asoslangan. So‘nggi yillarda O‘zbekiston delegatsiyalarining Germaniyaga tashriflari, xususan Bavariya federal o‘lkasining mahalliy boshqaruv tizimi bilan tanishish, kommunal byudjetni boshqarish va iqtisodiy rivojlantirish tajribasini o‘rganish bu boradagi amaliy qadamlar bo‘ldi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi - Germaniya mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish modelining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularning O‘zbekiston mahalla tizimini isloh qilish uchun qanday ahamiyat kasb etishini ilmiy asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili: Germaniya mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish tizimi bir qator ilmiy tadqiqotlar predmeti bo‘lgan. Xususan, nemis olimi Hellmut Wollmannning “Local Government and Governance in Germany” asari Germaniya kommunal

tizimining federal va Yevropa darajasidagi kontekstini, hududiy tuzilishini va funksional xususiyatlarini batafsil yoritadi [1]. Germaniya Asosiy Qonunining (Grundgesetz) 28-moddasiga ko‘ra, “kommunalar va tumanlar qonun doirasida o‘z ishlarini o‘z javobgarliklari ostida boshqarish huquqiga ega”.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan ham bu sohada ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, S.Alimuhamedovning “Децентрализация системы государственного управления: сравнительный анализ опыта Республики Узбекистан и зарубежных стран” nomli maqolasida O‘zbekiston va Germaniyaning nomarkazlashtirish tajribasi qiyosiy tahlil qilingan [2]. Shuningdek, N.Imomovaning tadqiqotida Germaniya, Fransiya, Yaponiya kabi davlatlarning mahalla tizimiga o‘xshash institutlari o‘rganilgan [3].

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil, tarixiy-retrospektiv usul va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Germaniya Federativ Respublikasining Asosiy Qonuni, kommunal qonunchilik hujjatlari va O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonuni asosiy huquqiy manbalar sifatida o‘rganildi [4].

Asosiy qism: Germaniya mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari Germaniya mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish tizimining birinchi va eng muhim xususiyati - uning konstitutsiyaviy kafolatga ega ekanligidir. Asosiy Qonunning 28-moddasi kommunalarga barcha mahalliy ishlarni qonun doirasida o‘z mas’uliyatlari ostida tartibga solish huquqini beradi. Bu qoida Germaniyada 1949-yildan buyon amal qilib keladi va mahalliy boshqaruvning huquqiy asosini mustahkam belgilab bergan [5].

Ikkinchidan, Germaniyada subsidiarlik tamoyili asosiy o‘rinni egallaydi. Bu tamoyilga ko‘ra, har qanday vazifa avvalo eng quyi darajadagi boshqaruv organi tomonidan amalga oshirilishi kerak, agar u buni bajara olmasa, keyingi darajaga

o‘tkaziladi. Germaniya kommunal xizmatlarni boshqarishda aynan shu tamoyilga asoslanadi va xizmatlarning katta qismi mahalliy hokimiyatlar zimmasiga yuklatilgan.

Uchinchidan, Germaniyada mahalliy vakillik organlari - mahalliy kengashlar (Gemeinden) umumiy, bevosita, erkin, teng va yashirin saylovlar asosida shakllantiriladi. Kengashlar o‘z navbatida mer yoki boshliqni saylaydi yoki saylangan mer bilan birgalikda ishlaydi. 1990-yillardan boshlab ko‘plab federal o‘lkalarda merlarni bevosita saylash amaliyoti joriy etilib, mahalliy demokratiya yanada kuchaytirildi.

To‘rtinchidan, Germaniyada mahalliy byudjet avtonomiyasi muhim ahamiyatga ega. Kommunalar o‘z byudjetlarini aholining ehtiyojlariga mos ravishda shakllantiradi va mahalliy soliqlar hamda davlat transfertlari hisobidan moliyalashtiriladi. Bu esa mahalliy hokimiyatlarning moliyaviy mustaqilligini ta’minlaydi.

O‘zbekistonda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish islohotlari va Germaniya tajribasining ahamiyati O‘zbekistonda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari tizimi davlat organlari tizimidan alohida belgilangan. Bu borada muhim huquqiy hujjat - “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hisoblanadi. Qonunga ko‘ra, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va qonun bilan berilgan o‘z vakolatlarini tegishli hududda amalga oshiradi.

Germaniya tajribasidan o‘rganish O‘zbekiston uchun bir necha jihatdan muhim:

Birinchi navbatda, Germaniyaning subsidiarlik tamoyili O‘zbekistonda mahalla institutining vakolatlarini kengaytirish va markazdan mahalliy darajaga vakolatlarni bosqichma-bosqich o‘tkazish uchun konseptual asos bo‘la oladi. O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston–2030” strategiyasida mahalliy boshqaruv tizimida o‘zini o‘zi boshqarish tamoyillarini kuchaytirish zarurligi ta’kidlangan [6].

Ikkinchidan, Germaniyaning kommunal byudjet avtonomiyasi tajribasi O‘zbekistonda mahallalarning moliyaviy mustaqilligini oshirish uchun muhim

ahamiyatga ega. Germaniyada kommunalar o‘z budjetlarini aholining ehtiyojlariga mos ravishda shakllantiradi. O‘zbekistonda ham mahallalarning o‘z daromad manbalariga ega bo‘lishi va ularni mustaqil boshqarishi ularning faoliyat samaradorligini oshiradi [7].

Uchinchidan, Germaniyada mahalliy vakillik va ijroiya organlari o‘rtasidagi o‘zaro tiyib turish mexanizmlari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekiston delegatsiyasining Germaniyaga tashrifi chog‘ida nemis hamkorlari tomonidan GFRdagi mahalliy hokimiyat, ijroiya va vakillik organlarining faoliyati, ularning o‘zaro munosabatlari, bir-birini tiyib turish mexanizmlari haqida ma’lumot berilgan. Bu tajriba O‘zbekistonda mahalliy kengashlar va hokimlar o‘rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishda qo‘llanilishi mumkin [8].

To‘rtinchidan, Germaniyada mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi va jamoatchilik nazorati samaradorlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi. O‘zbekistonda ham jamoatchilik nazorati institutini rivojlantirish, mahalla faoliyati ustidan fuqarolik nazoratini kuchaytirish Germaniya tajribasidan o‘rganish mumkin bo‘lgan muhim yo‘nalishdir [9].

Biroq Germaniya tajribasini O‘zbekistonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish mumkin emas. Germaniya federal davlat bo‘lib, uning mahalliy boshqaruv tizimi federalizm tamoyillariga asoslanadi, O‘zbekiston esa unitar davlatdir. Shuning uchun Germaniya tajribasining O‘zbekiston sharoitiga mos keladigan jihatlarini tanlab olish va milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda qo‘llash maqsadga muvofiqdir [10].

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Germaniya mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish modeli quyidagi jihatlari bilan O‘zbekiston uchun ahamiyatlidir:

1. subsidiarlik tamoyilining konstitutsiyaviy kafolati;
2. kommunal byudjet avtonomiyasi;

3. vakillik va ijroiya organlari o‘rtasidagi muvozanat;

4. jamoatchilik nazoratining samarali mexanizmlari.

O‘zbekiston Germaniya tajribasidan foydalanishda o‘zining unitar davlat ekanligini, mahalla institutining tarixiy va madaniy xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

Xulosa. Germaniya Federativ Respublikasining mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish tajribasi O‘zbekiston uchun nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ushbu tajriba O‘zbekistonda mahalla institutining huquqiy maqomini mustahkamlash, moliyaviy mustaqilligini oshirish, vakillik va ijroiya organlari o‘rtasidagi munosabatlarni takomillashtirish hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishda muhim konseptual asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Kelgusida Germaniya va O‘zbekiston o‘rtasida mahalliy boshqaruv sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish, tajriba almashish dasturlarini kengaytirish va qo‘shma ilmiy tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Wollmann H. Local Government and Governance in Germany: Challenges, Responses and Perspectives. — Cham: Springer International Publishing, 2024. – 169 p.

2. Alimuhamedov S. Децентрализация системы государственного управления: сравнительный анализ опыта Республики Узбекистан и зарубежных стран (на примере Французской Республики и Федеративной Республики Германия) // Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения, 2017. – С. 36–42.

3. Imomova N., Baxromova M. Xorijiy mamlakatlarda mahalla tizimiga o‘xshash institutlar tajribasi // Innovations in Science and Technologies, 2025. – B. 205-212.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 22.04.2013 yildagi O‘RQ-350-son.

5. Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland (Asosiy Qonun), 23.05.1949, –P. 31.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risidagi, PF-158-son.

7. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. —105-modda.

8. Kadirova Sh., Muhammadiyeva D. From Action Strategy to Development Strategy // International Journal of Artificial Intelligence, 2025. – P. 521–524.

9. Yusupov B. Mahalliy davlat hokimiyati asoslari. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari // Zenodo, 2026. – 154 bet.

10. Toshkulov A.H., Yusufovich T.Kh. Mahalla as a mechanism for the development of local self-government in Uzbekistan // International Journal of Early Childhood Special Education, 2022. – 189 p.